

UDK:336.2

Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil tadqiqotchi

email: a.akmalxon.a@gmail.com

MILLIY IQTISODIYOTDA XIZMATLAR SOHASINI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI RAG'BATLANTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotda xizmatlar sohasining o'ri, uning rivojlanish bosqichlari va soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirish mexanizmlarini tahlil qilingan. Tadqiqotda, jahon tajribasi, xususan, IT va turizm sohalarida soliq imtiyozlarining samaradorligi o'rganilib, O'zbekistonda ushbu tajribani qo'llash imkoniyatlari muhokama qilingan. Xizmatlar sohasini soliq imtiyozlari va davlat qo'llab-quvvatlashi orqali rivojlantirish mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi bo'yicha xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar

Xizmatlar sohasi, soliq imtiyozlari, milliy iqtisodiyot, turizm, IT-xizmatlar, iqtisodiy rivojlanish, O'zbekiston, jahon tajribasi, soliq siyosati, bandlik.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ СТИМУЛИРОВАНИЯ СЕКТОРА УСЛУГ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ ЧЕРЕЗ НАЛОГОВЫЕ ЛЬГОТЫ

Аннотация

В данной статье проанализирована роль сектора услуг в национальной экономике, этапы его развития и механизмы стимулирования через налоговые льготы. В исследовании рассмотрен международный опыт, в частности, эффективность налоговых льгот в сферах ИТ и туризма, а также обсуждены возможности применения этого опыта в Узбекистане. Делается вывод о том, что развитие сектора услуг посредством налоговых льгот и государственной поддержки имеет важное значение для повышения конкурентоспособности страны и обеспечения экономического роста.

Ключевые слова

Сектор услуг, налоговые льготы, национальная экономика, туризм, ИТ-услуги, экономическое развитие, Узбекистан, международный опыт, налоговая политика, занятость.

IMPROVING MECHANISMS FOR STIMULATING THE SERVICES SECTOR IN THE NATIONAL ECONOMY THROUGH TAX INCENTIVES

Abstract

This article analyzes the role of the services sector in the national economy, its stages of development, and mechanisms of stimulation through tax incentives. The study explores international experience, particularly the effectiveness of tax incentives in the IT and tourism sectors, and discusses the applicability of such practices in Uzbekistan. The findings suggest that the development of the services sector through tax incentives and government support is crucial for enhancing national competitiveness and ensuring economic growth.

Keywords

Services sector, tax incentives, national economy, tourism, IT services, economic development, Uzbekistan, international experience, tax policy, employment.

Kirish

Mamlakatimizni raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish xizmatlar sohasi iqtisodiyotini tizimli taraqqiy ettirishni taqozo etadi.

Respublikamiz milliy iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida xizmat ko'rsatish va servis sohasining o'rni va ahamiyati yildan-yilga oshib bormoqda. Alohida takidlash joizki, jahondagi rivojlangan davlatlarda YAIM dagi xizmatlar sohasining salmog'i 65%-80% tashkil etayotgan bir paytda, O'zbekiston Respublikasining YAIM da xizmatlar sohasining ulushi 37,6% (2021-yil) ni tashkil etadi. Bularning barchasi kelgusida Respublika Taraqqiyot strategiyasini samarali amalga oshirishda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishni zarur qilib qo'yadi.

Shunday ekan, alohida takidlash zarurki jahonda, shu jumladan Respublikamizda xizmat ko'rsatish va servis sohasi iqtisodiyotning tez rivojlanuvchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyoti taraqqiy topgan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarishning murakkablashuvi va bozorning tovarlar bilan to'ldirilishi natijasida xizmatlarga bo'lgan talab o'sib bormoqda. Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish darajasini yanada oshirish, aholiga yangi zamonaviy va sifatli xizmat turlari ko'rsatish, xizmatlar sohasi taraqqiyotiga asoslangan iqtisodiy o'sishni ta'minlash, shuningdek aholi, birinchi navbatda, qishloq joylarda bandlik masalasini hal etishda xizmat ko'rsatish sohasining rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda keyingi yillarda bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Xizmatlar sohasi asosida xizmat bo'lib, ushbu faoliyat turli jarayonlarni amalga oshirishda ishtirok etadi. Avvalo, "xizmat" so'zi, asosan, quyidagi ikki xil lug'aviy ma'noga ega: - boshqa birovga foyda keltiruvchi harakat va biror kimga xo'jalik qulayliklarini taqdim etmoq.

Klassik iqtisodchi Adam Smit (1723-1790) xizmat shaklidagi noz-ne'matlarning iqtisodiy mazmunini batafsil ochib berish hamda uning mamlakat ijtimoiy boyligining manbai sifatida ko'rish muammosini bartaraf etish maqsadida o'zining "Xalqlar boyligining tabiat va sabablari tadqiqoti" (1766) nomli asarida "unumli mehnat" va "unumsiz mehnat" tushunchalari xususida fikr bildirgan holda A.Smit moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishni farqlab dastlabki xizmat tushunchasi paydo bo'lishiga o'z xissasini qo'shgan[8].

A.Smitning fikrlarini boyitgan holda olim M.M.Muxammedov o'zining "Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari" deb nomlangan monografiyasida "inson iste'moli uchun zarur bo'lgan har qanday noz – ne'mat (*ya'ni u moddiy yoki nomoddiy bo'lishidan qat'iy nazar*) ishlab chiqarishga sarflangan mehnat baribir jamiyat uchun foydali, samarali unumli deb qaralishi va ijtimoiy boylik tarkibiga albatta kiritilishi lozim" deb hisoblaydi. Shu orqali olim har qanday ne'mat yaratishga qaratilgan mehnat qatori xizmat ko'rsatishda band bo'lganlarning mehnati ham qiymat va iste'mol qiymatini yaratishi mumkinligini ilmiy asoslaydi[9].

"Xizmat" atamasi olimlar tomonidan iqtisodiy adabiyotlarda turlicha nuqtayi nazardan qo'llanilib iqtisodiy bilim sohasiga bog'liq holda talqin qilinadi. Ushbu atama doirasida ko'plab xorijlik va mahalliy olimlarimiz nazariy tadqiqotlar olib borishgan. Taniqli olimlardan biri F.Kotler bo'lib, u xizmatga quyidagicha ta'rif beradi: "Xizmat – bu bir tomon boshqasiga taklif qilishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyatdir"[10].

O'zbek olimlaridan I.S.Tuxliyev: "Xizmatlar - bu ko'zga ko'rinmas tovarning o'ziga xos turidir" degan va ushbu yondashuvda olim xizmatni tovar xususiyatini ifodalagan, ya'ni, xizmatlar ishlab chiqarish, moddiy ishlab chiqarish jarayonlaridagi mehnat munosabatlarini o'zida aks ettiradi, ammo ishlab chiqarish jarayoni natijasi nomoddiy shaklga ega bo'ladi deb ta'kidlashga harakat qiladi [11].

Xizmat tushunchasiga I.Ochilov tomonidan berilgan ta'rif boshqalariga nisbatan mazmun va mohiyat jihatidan takomillik kasb etgan va u quyidagi shaklda berilgan: "Xizmat deyilganda, insonning, xo'jalik yurituvchi subyektlarning, davlatning va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog'liq ongli faoliyati tushuniladi" deb ta'rif bergan [12].

Professor M.Q.Pardayevning fikriga ko'ra, "Xizmat ko'rsatish sohasi deyilganda, ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan ko'rinishga ega bo'lmagan iste'mol qiymatlarini yaratishga yo'naltirilgan sohalari tushuniladi. U o'z ichiga moddiy xizmatlar ko'rsatish (qurilish, transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va boshqalar) hamda nomoddiy xizmatlar ko'rsatish (huquqiy maslahatlar berish, o'qitish, malaka oshirish va boshqalar)ni oladi" deya ta'rif berib, inson ijtimoiy faoliyati rivojlanishida unga ko'maklashadigan muhim tarmoq va soha sifatida aynan xizmat ko'rsatish sohasini keltiradi. Shu orqali olim xizmat ko'rsatish sohasini to'g'ridan – to'g'ri inson iste'moliga yo'nalishini moddiy va nomoddiy xizmat ko'rsatish sohasi sifatida har bir iste'molchi og'irini yengil qiladigan soha ekanligini ilmiy isbotlaydi[13].

B.B.Mardonov iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida xizmat ko'rsatish sohasining mohiyatini ochishda iste'molchi nuqtai-nazaridan qarash muhim ekanligini asoslagan. Xususan tadqiqotchining fikricha: "Xizmat bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, u iste'molchi ehtiyojini qondirishga (og'irini yengil, uzog'ini yaqin, mushkulini oson qilishga) va ularning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan mehnat faoliyatining keng tarqalgan turidir" deb ta'riflab istemolchi xizmatning muhim bo'g'ini ekanligini asoslagan[14].

Yuqoridagi olimlarning fikr-mulohazalaridan kelib chiqib aytish mumkinki davlat, jamiyat, korxona va tashkilotlar yoki yakka iste'molchi bo'lishidan qat'i nazar o'z talab va ehtiyojlarini qondirish maqsadida turli ko'rinishdagi xizmatlarni iste'mol qilmoqda. Shu sababli xizmatlarni iste'mol qilishga qaratilgan ularning talab va ehtiyoji xizmat ko'rsatish sohasining munosib rivojlanishida aynan xizmat ko'rsatish sohasining o'zi soha va tarmoqlarning lokomotivi ekanligining yaqqol dalilidir.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda xizmatlar sohasini soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirish mexanizmlarini tahlil qilish uchun qiyosiy, tarkibiy va solishtirma tahlil qilish uchun Milliy statistika agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari, shu bilan birga boshqa turli rasmiy internet saytlaridan foydalanilgan. O'rganish jarayonida tahlil, statistik ma'lumotlarni solishtirish va taqqoslash usulidan foydalanilgan. Shu bilan birga, ilmiy mushoxada, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar


Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xizmatlar sohasi milliy iqtisodiyotning muhim lokomotivi bo'lib, uning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Xizmatlar moddiy va nomoddiy shakllarga ega bo'lib, inson va jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan har qanday faoliyatni o'z ichiga oladi. Ular iqtisodiy (qiymat yaratish) va ijtimoiy (ish o'rnlari yaratish, turmush darajasini yaxshilash) xususiyatlarga ega. Xizmatlar sohasining muhim jihatlari mahsulotlarning murakkabligi, resurslarning xilma-xilligi va yuqori malakali kadrlar tarkibiga ega ekanligida namoyon bo'ladi. Xizmatlar miqyosi (mahalliy, mintaqaviy, milliy, xalqaro), iste'molchilarga moslashish darajasi (standartlashtirilgan, shaxsiylashtirilgan), yo'nalishi (to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita), ish mazmuni (qattiq, yumshoq) va amalga oshirish vaqti (savdo oldidan, sotishdan keyin) bo'yicha tasniflanadi.

O'zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanish uchta asosiy bosqichga bo'linadi:

Birinci bosqich (2006-yilgacha) bu davrda xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushi sezilarli darajada o'sgan (1990-yildagi 1,3% dan 2006-yilda 39,5% gacha). Davlat mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshira boshladi, bu esa xizmat turlarining yangi shakllarini rivojlantirishga zamin yaratdi.

Xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining dastlabki bosqichi aholi bandligini ta'minlash va turmush darajasini oshirishda har doim ustuvor vazifalaridan bo'lib qolishiga alohida e'tibor berilgan.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining 1990-2006-yillar dinamikasi [17].

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki xizmatlar sohasining o'zgarish dinamikasi 1990-yilda 1,3 foizni tashkil etgan bo'lsa 2006-yilga kelib esa 39,5 foizni o'sishga erishgan. Birinchi bosqichni o'z ichiga olgan 2006-yilni 1990-yilga taqqoslaydigan bo'lsak 38 barobar farq bilan o'sgan.

Davlatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan ilk kunlardan boshlab iqtisodiyotning barcha sohalarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshira boshladi. O'z navbatida bu davr - xizmatlar sohasining barcha turlari isloh etilishiga, xizmat turlarining yangi shakli rivojlanishiga zamin yaratdi.

Ikkinchi bosqich (2006-2016-yillar) bu davr Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida shakllangan bo'lib, tadbirkorlik faolligini oshirish, xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushini ko'paytirish, aholi bandligini ta'minlash va yangi istiqbolli xizmat turlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Ikkinchi bosqichni boshlanishini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora- tadbirlari to'g'risida" 2006-yil 17-apreldagi PQ-325-sonli Qarori bilan bog'lash mumkin. Mazkur hujjat ushbu sohaga, undagi subyektlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borishni, soha taraqqiyotining konseptual yo'nalishlarini belgiladi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2013 — 2016-yillarda O'zbekiston Respublikasining qishloq joylarida xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi 2013-yil 17-aprel, PQ-1957-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda nazarda chora tadbirlar asosida qishloq joylarda jami xizmatlarning o'rtacha o'sish istiqbollari belgilangan [2].

Xizmat ko'rsatish sohasiga e'tibor faqat mazkur qaror bilan chegaralanib qolgan emas. Bunga muttasil e'tibor berilib kelingan. Chunki, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi va yaqin kelajakdagi ustuvor vazifalaridan biri xizmat sohasini rivojlantirishdan iboratligi belgilab qo'yilgan.

Uchinchi bosqich (2016-yildan keyin) bu bosqichda xizmatlar sohasini balansli rivojlantirish, raqobatbardoshlik va sifatni oshirish, tijorat banklari kreditlari hajmini ko'paytirish hamda raqamli xizmatlarni kuchaytirishga e'tibor qaratilgan. O'sish sur'ati, ayniqsa, 2016-yildan keyin sezilarli darajada tezlashgan.

Mazkur bosqichda xizmatlar sohasi korxonalari faoliyatini balansli rivojlantirish va diversifikatsiyalashni ta'minlash, ular ko'rsatadigan xizmatlarning raqobatbardoshligini va sifatini oshirish, xizmatlar sohasini rivojlantirishga tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning hajmlarini ko'paytirish hamda raqamli xizmatlarni kuchaytirishga e'tibor qaratilgan[3].

1-jadval

O'zbekistonda 2010-2023 yillarda xizmat turlari bo'yicha o'sish surati, trln. so'm [17]

Xizmatlar turi	Yillar				
	2010	2016	2020	2022	2023
Xizmatlar – jami	27,1	97,1	218,9	357,6	477,5
sh.j.: asosiy turlari					
Aloqa va axborotlashtirish	2,1	6,3	12,9	22,92	32,23
Moliyaviy xizmatlari	2,6	9,9	45,8	80,43	106,36
Transport xizmatlari	10,5	30,6	53,8	81,01	108,48
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	0,3	3	5,9	11,32	18,33
Savdo xizmatlari	6,6	27,4	56,5	88,85	110,66
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	0,8	3,4	6,1	9,67	12,06
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	0,8	3,3	9,1	15,40	20,42
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	0,3	1,4	3,2	6,38	8,44
Ijara va prokat xizmatlari	0,5	2,3	4,2	6,44	7,54
Kompyuter va maishiy tovarlarni tamirlashga oid	0,6	2,2	3,4	5,84	7,02
Shaxsiy xizmatlar	0,8	2,9	5	8,71	10,92
Arxitektura, injenerlik izlanishlari, texnik tadqiqotlar va tahlil bo'yicha xizmatlar	0,3	1,1	4,9	7,34	7,96
Boshqa xizmatlar	0,9	3,2	8,1	13,24	19,87

O'zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sohasi yil sayin kengayib, iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanib bormoqda. Respublikada 2023-yilda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 477,5 trln. so'mdan ko'proqqa teng bo'ldi va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 31,4%ni (2010-yildan 2023-yilga qadar xizmatlar sohasining o'sishi juda jadal bo'lganini ko'rish mumkin. Agar 2010-yilda xizmatlar sohasining umumiy hajmi 27,1 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu raqam 477,5 trln so'mga yetgan, ya'ni 17 barobarga oshgan) tashkil etdi (1-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki xizmatlar tarkibida jadal rivojlanib, iqtisodiyotda katta ulushga ega bo'lgan xizmat turlari quyidagilar:

- Moliyaviy xizmatlar 2023-yilda o'tgan yilga nisbatan o'sish: 20,6 %, 2010-yilga nisbatan esa 40,9 barobar oshgan.

- Yashash va ovqatlanish xizmatlari 2023-yilda o'tgan yilga nisbatan o'sish 12,6 %, 2010-yilga nisbatan esa 20,5 barobar oshgan.

- Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha 2023-yilda 2022-yilga nisbatan o'sish 24,6 , 2010-yilga nisbatan esa 15,4 barobar oshgan.

- Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 2023-yilda o'tgan yilga nisbatan o'sish 13,3 %, 2010-yilga nisbatan esa 14,1 barobar oshgan.

- Ta'lim xizmatlari bo'yicha 2023-yilda o'sish 22,8 %, 2010-yilga nisbatan esa 13,5 barobarni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Shu o'rinda, o'sish sur'atlarini kuzatadigan bo'lsak, 2020-yilga qadar, o'sishni katta ko'rsatgichlarni qayd etgan. Biroq, 2020-yilda xizmatlar hajmining o'sish sur'ati 103,0 % bo'lib, Covid-19 pandemiyasi natijasida yuzaga kelgan fors-major holati bilan izohlash mumkin.

Buni Covid-19 pandemiyasi sababli ayrim xizmat ko'rsatish turlarining pasayishida, shu bilan bir qatorda, mavjud karantin vaziyatidan kelib chiqib, ayrim xizmat turlarining ko'payishida ham ko'rishimiz mumkin. Chunki, aynan pandemiya paytida mavjud vaziyat bir tarafdin xizmat ko'rsatishning yangicha usullaridan, ya'ni elektron xizmat, yetkazib berish xizmatlari va boshqa

bir qator xizmat turlaridan foydalanishga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tarafdin yangi xizmat turlarining hayotimizga kirib kelishiga va rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Shu bilan birga xalqaro tajriba o'rganilganda jahon tajribasi shuni ko'rsatdiki, soliq imtiyozlari xizmatlar sohasini rivojlantirishning samarali vositasidir. Ikki asosiy yondashuv mavjud bo'lib, birinchi yondashuvda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda foyda solig'i stavkalarini pasaytirish keng qo'llanilmoqda.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, 2010-2024 yillar davomida Osiyo mamlakatlarida foyda solig'ining o'rtacha stavkasi 23,7 foizdan 21,1 foizgacha, Yevropa mamlakatlarida 21,5 foizdan 19,4 foizgacha, Shimoliy Amerikada 35,5 foizdan 26,8 foizgacha, Okeaniyada 29 foizdan 28,4 foizgacha, IHTT a'zo-davlatlarida 25,7 foizdan 23,4 foizgacha pasaygan (2-jadvalga qarang) [15].

Ba'zi mamlakatlar nisbatan qisqa vaqt ichida soliq stavkalarining bir necha marta pasayishini namoyish etmoqda. Masalan, 2024-yil 1-aprelga qadar Buyuk Britaniyada kichik va o'rta biznes subyektlari uchun korporativ soliq stavkasini 19 foizdan 17 foizgacha pasaytirgan [16]. Shu bilan birga, so'nggi besh yil ichida soliq stavkasi to'rt marta 24 foizdan 19 foizga tushirilgan. Bu investitsiyalarni rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

2-jadval

Ayrim mamlakatlarda foyda solig'i stavkalari dinamikasi

Mintaqa nomi	2010	2012	2016	2018	2020	2022	2024
O'rta Osiyo	23,7	22	22	21,4	21,1	21,2	21,1
Markaziy Yevropa	21,5	20,4	20,1	20	19,5	19,5	19,4
O'rta Shimoliy Amerika	35,5	33,3	33,3	33,3	33,3	26,8	26,8
O'rta Okeaniya	29	27	27	27	28,4	28,4	28,4
IHTT o'rtachasi	25,7	25	24,8	24,7	24	23,5	23,4

Kanadada 2019-yildan boshlab kichik biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida yangi soliq imtiyozi joriy etildi. Unga ko'ra, tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadning birinchi 500 000 AQSH dollariga 19% miqdorida pasaytirilgan soliq stavkasi qo'llaniladi. Bu stavka kompaniyaning soliqa tortiladigan daromadi yoki yillik biznes limiti kabi ko'rsatkichlarning eng kichigiga asoslanib hisoblanadi. Ushbu chora tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan[20].

Shunday qilib, xizmatlar sohasini rivojlantirish va kengaytirish uchun rag'batlantiruvchi omillar yaratilmoqda, bu esa kelajakda kulrang iqtisodiyotdan ochiq biznes yuritishga imkon beradi va soliq tushumlarining oshishiga olib keladi. Shu sababli, ko'plab mamlakatlarda soliq imtiyozlari joriy qilinganda tavor aylanmasining oshishi va soliq tushumlarining ko'payish tendensiyasi kuzatilmoqda.

IHTT ma'lumotlariga ko'ra (Revenue Statistics 1965–2016), 2009-yildan 2014-yilgacha ba'zi davlatlarda soliqlarning umumiy iqtisodiyotga tushgan yuklamasi oshgan. Masalan, Rossiyada soliq tushumlari YAIMga nisbatan 30,88% dan 34,34% gacha, Avstraliyada 41,02% dan 42,68% gacha, Germaniyada 35,70% dan 37,56% gacha, Italiyada 41,88% dan 42,87% gacha, Fransiyada 42,86% dan 45,27% gacha, Yaponiyada esa 28,61% dan 30,74% gacha o'sgan. Bu esa davlatlarning budjetiga tushadigan soliq tushumlarining oshishiga sabab bo'lgan[18].

Ikkinchi yondashuv IT va turizm sohalarida maxsus iqtisodiy zonalar yaratish va nol foizli soliq stavkalarini qo'llash orqali katta yutuqlarga erishgan

Xizmatlar sohasining asosiy bo'g'ini sifatida turizm hisoblanadi. Turizm rivojlantirish ayniqsa Cho'l hududlarida rekreatsion turizmni rivojlantirish – mamlakatimiz turizm sohasini diversifikatsiya qilish va mintaqaviy iqtisodiyotni mustahkamlash uchun dolzarb yo'nalishlardan biridir.

Ma'lumki, O'zbekistonning 70 foizdan ortiq qismi issiq cho'ldan iboratligi (qishda sovuq) yoki ekanligi albatta turizmga ta'sir ko'rsatadi va uni mavsumiy xarakterini belgilab beradi.

Shu munosabat bilan, cho'l hududlarida turizmni rivojlantirishga qaratilgan soliq imtiyozlari bo'yicha horijiy tajribani ham o'rganish maqsadga muvofiq.

Yaqin Sharq mamlakatlarida qumtepalar va cho'l hududlaridan sayyohlik maqsadida ijobiy foydalanib kelmoqda. Misol uchun, Marokash, Misr, Qatar va BAA davlatlariga sayyohlar boshqa mamlakatlardan ham keladi. Sayohatchilar cho'l bo'ylab sayr qilib, dengizga borishlari, tunda chodirlarda to'xtab, yulduzli osmonni tomosha qilishlari ushbu mamlakatlarga tashrif buyurishadi.

Cho'l hududida turizmni rivojlantishga qaratilgan soliq imtiyozlari bo'yicha BAA yaxshi natijaga erishgan. Turizm Dubay va umuman BAA'dagi eng muhim sohalardan biridir. 2019-yilda turizm sektori BAA yalpi ichki mahsulotiga taxminan 12 foiz hissa qo'shdi va uning ulushi doimiy ravishda oshib bormoqda. Masalan, 2000-yilda turizm sohasi yalpi ichki mahsulotning atigi 4,2 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 14,4 foizni tashkil etgan edi.

Bundan tashqari, aynan Dubayda mamlakatning turizm sektoridan tushadigan daromadlarning katta qismi to'plangan. Shunday qilib, World Travel & Tourist Council ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda BAA da turizm sektoridan tushgan daromadning 57 foizi Dubay hissasiga to'g'ri kelgan. 2023-yilda Dubaydagi sayyohlar soni 18 milliondan ortgan.

Ushbu ko'rsatkichlarga erishishda BAA tomonidan Dubayni turizm hududiga aylantirish bo'yicha samarali qo'llab quvvatlanishi natijasida yuzaga kelganligini ko'rish mumkin.

Dubayning erkin zona (free zone) modeli katta ijobiy natija berdi. Xususan, foyda solig'i 0%, (2023-yildan boshlab faqat yirik kompaniyalar uchun 9% soliq joriy qilingan), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mavjud emas – ya'ni korxona ishchilari ish haqi yoki dividendlar uchun soliq to'lamaydi[19].

Turizm Marokash yalpi ichki mahsulotining 7,5% ni va uning bilvosita ta'sirini hisobga olgan holda 12% ni tashkil qiladi. Bu podshohlik iqtisodiyotida fosfat va fosfat mahsulotlarini qazib olish, ishlab chiqarish va eksport qilishdan keyin ikkinchi muhim tarmoqdir[21].

Marokashga 2024-yilda 17,4 million sayyoh tashrif buyurgan (o'tgan yilga nisbatan 20%ga o'sgan)[22].

Marokashda turizm sohasida yangi tashkil qilingan yangi korxonalar 5 yil davomida foyda solig'idan ozod qilinadi.

Shuningdek, 2015-yil 1-yanvardan 2022-yil 31-dekabrgacha tashkil etilgan korxonalar uchun oylik maoshi 10 000 dirxam (\$918) yoki undan kam bo'lgan 10 nafargacha xodimlar uchun 2026-yil 1-yanvarga qadar imtiyozlaridan foydalanish huquqi berilgan [23].

Shunga asosan, O'zbekistonda cho'l turizm potentsiali yuqoriligidan foydalanib, uni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyoti uchun yangi daromad manbai bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda IT-xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha ko'plab xorijiy mamlakatlar strategik darajada ahamiyat berib kelinmoqda.

Hozirda Irlandiya IT-xizmatlarining dunyodagi birinchi yirik eksportchisi maqomiga ega [24].

Jahon bankining ma'lumotiga ko'ra, 2022-yilda Irlandiyaning yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmi 529 milliard AQSH dollarini tashkil etgan, shundan, 206 milliard AQSH dollari ya'ni davlatning umumiy YAIMning qariyb 40 foizi, IT xizmatlari eksportiga to'g'ri kelgan.

Hindistonning ITga asoslangan xizmatlar eksporti 2022-yilda 144 milliard AQSH dollarini tashkil etgan (umumiy YAIMning qariyb 4 foiziga teng).

Shu bilan birga, Irlandiya 4,9 million aholiga ega bo'lib, 2022-yilda aholi jon boshiga YAIM 104 ming AQSH dollariga, IT xizmatlarining eksport hajmi esa 42,1 ming AQSH dollariga teng bo'lgan.

Yuqoridagi ko'rsatkich 2022-yilda Buyuk Britaniya uchun 628 AQSH dollarini, Fransiya va Germaniya uchun 376 va 496 AQSH dollarini tashkil etgan.

Irlandiya 500 mingdan ortiq IT-mutaxassislarga ega, bu esa mamlakatning aholi umumiy sonining qariyb 10 foizini tashkil etadi.

Hozirgi kunda Irlandiya Yevropa mintaqasida global IT-xabga aylangan va quyidagi yirik transmilliy korporatsiyalar uchun mintaqaviy vakolatxona sifatida xizmat ko'rsatib kelmoqda: "Apple", "Google", "Microsoft", "Dell", "Meta" (sobiq Facebook), "Amazon Web Services (AWS)", "Cisco", "IBM".

Irlandiyada IT-sektorni qo'llab-quvvatlash uchun nisbatan past foyda solig'i stavkasi (12,5%) amaliyotda qo'llaniladi. Shu bilan birga, IT – xizmatlarni eksport qilganda 0 stavkali foyda solig'i qo'llaniladi [25].

O'zbekistonda xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushi 43,4% ga yetgan bo'lsa-da, rivojlangan mamlakatlardagi 60-80% ko'rsatkichidan ancha past. Bu soliq imtiyozlarini yanada takomillashtirish, xizmat sohasidagi eksportchilar uchun soliq yukini kamaytirish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, turizmni cho'l hududlarida rivojlantirish, xususiy ta'lim obyektlarini ko'paytirish va IT-outsorsing, raqamli xizmatlar va texnologik startaplar uchun soliq imtiyozlarini taqdim etish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'rni va uning rivojlanish bosqichlari tahlili O'zbekistonda ushbu sohaning salohiyati hali to'liq ishga solinmaganligini ko'rsatadi. Rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushi ancha yuqori ekanligi, O'zbekiston uchun bu borada katta imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqotda ko'rsatilganidek, soliq imtiyozlari iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishning samarali vositasidir. Xususan, foyda solig'i stavkalarini pasaytirish va maxsus iqtisodiy zonalar yaratish IT va turizm kabi yuqori qo'shimcha qiymatli sohalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. Irlandiya, BAA, Hindiston va Singapur kabi davlatlarning tajribasi bunga yorqin misoldir. Bu davlatlar soliq imtiyozlari va davlat qo'llab-quvvatlashi orqali global texnologik markazlarga aylangan.

O'zbekiston sharoitida ham xizmatlar sohasini, ayniqsa turizm va IT-ni rivojlantirish uchun qo'shimcha soliq islohotlari katta samara berishi mumkin. Cho'l hududlarida turizmni rivojlantirish uchun soliq imtiyozlaridan foydalanish BAA va Marokash tajribasida o'z tasdig'ini topgan. Bu O'zbekistonning boy tabiiy resurslaridan (masalan, cho'l landshaftlari) samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi va yangi daromad manbalarini ochadi.

Shunga ko'ra, O'zbekistonda quyidagi yo'nalishlarda soliq imtiyozlarini takomillashtirish va xizmatlar sohasini rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiq:

1. Turizm sohasini, ayniqsa cho'l hududlarida rivojlantirish uchun maxsus soliq imtiyozlari joriy etish. Bu yangi turistik yo'nalishlarni ochishga va mintaqaviy iqtisodiyotni mustahkamlashga yordam beradi.

2. Raqamli xizmatlarni eksportga yo'naltirish va investitsiyalarni jalb qilish maqsadida eksportyor raqamli xizmat ko'rsatuvchilarga soliq imtiyozlari berish.

3. Xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik va o'rta biznes subyektlari uchun imtiyozli soliq rejimlarini kengaytirish. Bu ularning faoliyatini rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiyotdagi ulushini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Ushbu choralar O'zbekistonda xizmatlar sohasining yanada jadal rivojlanishiga, uning YaIMdagi ulushini xalqaro darajaga ko'tarishga, yangi ish o'rinlari yaratishga va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatning mintaqaviy va global iqtisodiyotdagi raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2006-yil 17-apreldagi PQ-325-sonli Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2013 — 2016-yillarda O'zbekiston Respublikasining qishloq joylarida xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi 2013-yil 17-aprel, PQ-1957-son qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2016-2020-yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturi to'g'risida" 2016-yil 26-fevraldagi 55-sonli qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini qo'llab quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 16-iyundagi PQ-4752-sonli qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-

tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 30-sentyabrdagi PF-6318-son Farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-son qarori.

8. Smith, A. (1766). An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations.

9. Muxammedov, M.M. (2018). Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari. Monografiya.

10. Kotler, P. (2000). Marketing Management. 10th ed. Prentice Hall.

11. Tuxliyev, I.S. (2005). Xizmatlar iqtisodiyoti. Darslik.

12. Ochilov, I. (2010). Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma.

13. Pardayev, M.Q. (2015). Xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishi va samaradorligini oshirish yo'llari. Monografiya.

14. Mardonov, B.B. (2020). Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari. Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.

15. World Bank Official Website. (Various years). Data on GDP and economic indicators.

16. World Travel & Tourist Council (WTTC) Official Website. (Various years). Economic Impact Reports.

17. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari

18. Основные направления бюджетной, налоговой и таможенно-тарифной политики на 2019 год и на плановый период 2020 и 2021 годов (утв. Минфином России).

19. <https://www.visitdubai.com/ru/travel-trade/> сайт маълумотлари

20. T2 Corporation – Income Tax Guide 2017. Canada Revenue Agency. Agence du revenu du Canada.

21. Институт Ближнего Востока <http://www.iimes.ru/?p=26223>

22. <https://www.atelayar.com/en/> сайт маълумотлари

23. ИА Красная Весна - <https://rossaprimavera.ru/>

24. IT Park rasmiy sayti ma'lumotlari <https://it-park.uz/uz/itpark/news/it-eksport-uzbekistana-put-k-globalnomu-uspehu-na-primere-opyta-irlandii>

25. Irlandiya Soliq xizmati - <https://www.revenue.ie>